ABDULLA QODIRIY IJODIDA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOLARINING BADIIY TALQINI: INTERFAOL METODLAR ASOSIDA

Jo‘rayeva Gulchehra Bekmurodovna

Qo‘qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qodiriy ijodida shaxs va jamiyat muammolarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Adibning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, publitsistik maqolalari hamda hajviy asarlarida inson erki, ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy tanazzul, jaholat va taraqqiyot masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy-amaliyot jarayonida mazkur mavzuni o‘qitishda qo‘llangan interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, savol-topshiriqlar va talabalar natijalari bayon etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация проблем личности и общества в творчестве крупного представителя узбекской литературы Abdulla Qodiriy. В произведениях писателя O‘tkan kunlar, Mehrobdan chayon, публицистических статьях и сатирических произведениях освещаются вопросы свободы человека, социального неравенства, духовного упадка, невежества и прогресса. Также в статье представлены интерактивные методы, инновационные подходы, вопросы-задания и результаты студентов, применённые в процессе научно-практической работы по изучению данной темы.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the problems of the individual and society in the works of the prominent representative of Uzbek literature, Abdulla Qodiriy. In the writer’s works O‘tkan kunlar, Mehrobdan chayon, as well as in his journalistic articles and satirical writings, issues such as human

freedom, social inequality, spiritual decline, ignorance, and progress are highlighted. The article also presents the interactive methods, innovative approaches, tasks, and student outcomes applied during the scientific-practical teaching process of this topic.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, shaxs, jamiyat, badiiy talqin, roman, ma’naviyat, interfaol metod, ta’lim texnologiyasi.

Ключевые слова: Abdulla Qodiriy, личность, общество, художественная интерпретация, роман, духовность, интерактивный метод, образовательная технология.

Keywords: Abdulla Kodiriy, individual, society, artistic interpretation, novel, spirituality, interactive method, educational technology.

XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti o‘zbek xalqining ijtimoiy tafakkuri va milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutadi. O‘sha davrning zabardast adibi Abdulla Qodiriy o‘z ijodi orqali jamiyatdagi ziddiyatlar, shaxs erki, adolat va taraqqiyot masalalarini badiiy talqin qilgan. Uning asarlari nafaqat badiiy yuksakligi, balki ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan ham ahamiyatlidir. Qodiriy ijodi millat tafakkurining uyg‘onishida beqiyos o‘rin tutadi.[1; 87]. Bu orqali u kitobxonlarga ijtimoiy adolatni o‘rganish, inson qadr-qimmatini ulug‘lash, erkin fikrlashga intilish hamda jamiyat taraqqiyoti yo‘lida ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini uqtiradi. Adib asarlarida ilgari surilgan bunday g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni vatanparvarlik, halollik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Qodiriy yaratgan obrazlar milliy tafakkur va ma’naviyat timsolidir[2; 118]. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, milliy tushuncha va mentalitet o‘zaro uyg‘unlashadi va bu orqali o‘quvchini milliy o‘zlikni anglash, o‘zbekka xos bo‘lgan qadriyatlarni asrab qolish uchun chorlaydi. Abdulla Qodiriy romanlari o‘zbek adabiyotida realizmning yuksak namunasi bo‘lib qoldi.[3; 96]. Realist yozuvchi

musulmon millat hayotining, millat asl farzandlarining ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik marg‘ub tomonlari bilan barobar kishida afsus-nadomat uyg‘otadigan noxush ziddiyatli jihatlarini ham mardona bir tarzda ro‘yi-rost ko‘rsatadi[4; 58].

Shaxs va jamiyat tushunchasi doimo yonma-yon kelgan holda bir-birini to‘ldiradi. Chunki shaxs jamiyat ichida shakllanadi, uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qiyofasi aynan muhit ta’sirida kamol topadi. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyoti ham bevosita ongli, faol va tashabbuskor shaxslar faoliyatiga bog‘liqdir. Zero, har bir davrning rivoji, undagi islohotlar va yangilanishlar inson tafakkuri, mehnati hamda intilishlari orqali yuzaga keladi. Shuning uchun shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabat uyg‘unligi har qanday taraqqiyotning muhim omili sanaladi. Huddi shuni hisobga olib,

Abdulla Qodiriy asarlarida jamiyatning tanazzulini, uning bori-yu yo‘g‘ini ochib berish holatlari ko‘p kuzatilgan. Ayniqsa, O‘tkan kunlar romanida muallif eski tuzumdagi ichki nizolar, mansab talashish, adolatsizlik va ma’naviy inqirozni chuqur tasvirlaydi. Asarda yurt boshqaruvidagi parokandalik haqida quyidagi mazmundagi fikrlar beriladi: “Beklar bir-biri bilan olishib, xalqning tinchini buzgan, el boshiga kulfat yog‘dirgan edilar[5; 146].” Ushbu parchada yozuvchi jamiyat tanazzulining asosiy sabablaridan biri sifatida hokimiyat tepasidagi shaxslarning o‘zaro nizolari va manfaatparastligini ko‘rsatadi. Ya’ni rahbar tabaqaning shaxsiy manfaatni xalq manfaatidan ustun qo‘yishi natijasida oddiy xalq aziyat chekkan, yurt osoyishtaligi buzilgan. Adib bu orqali jamiyat ravnaqi adolatli boshqaruv, birlik va mas’uliyatga bog‘liq ekanini badiiy ifodalaydi.

Shuningdek, ushbu tasvir bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, har qanday jamiyatda ichki kelishmovchilik, mansabparastlik va loqaydlik taraqqiyotga to‘sqinlik qilishini anglatadi. Qodiriy tarixiy voqealar misolida nafaqat o‘tmishni tasvirlaydi, balki kelajak avlodni ham ogohlantiradi. Shu bois uning asarlaridagi tanazzul manzaralari chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi.

Hozir jadidlar ijodi haqi da so‘z borganda ularning markaziy muammosi milliy erk masalasi bo‘lganini ta’kidlaymiz. Abdulla Qodiriy chinakam san’atkor va gumanist sifatida bu muam moni juda keng qo‘ydi: milliy erk masalasini shaxs erki masalasi bilan chambarchas bog‘lab talqin qildi[6; 36]. Huddi shunday nazariy ma’lumotlarni talabalarda amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida turli pedagogik metodlardan foydalanildi.

1.1 .Jadval

№	Metod nomi	Qo‘llash jarayoni	Natija
1	Aqliy hujum	“Badiiy talqin nima?” savoli asosida suhbat va fikr almashish tashkil etildi.	Talabalar badiiy talqin tushunchasini hayotiy voqea-hodisalar, inson kechinmalari va ijtimoiy muammolarning adabiy obrazlar, tasviriy vositalar hamda muallif qarashlari orqali san’atkorona ifodalanishi sifatida angladilar. Ular badiiy talqin orqali yozuvchi voqelikni oddiy bayon etmasdan, unga estetik mazmun, g‘oyaviy yo‘nalish va ta’sirchan ruh bag‘ishlashini misollar yordamida tushuntirib berdilar.
2	Klaster	Jamiyat muammolari sxemalashtirildi	Talabalar tomonidan asarda aks etgan ijtimoiy tengsizlik, mansabparastlik, poraxo‘rlik, jaholat, xotin-qizlar huquqsizligi, mahalliychilik va adolatsizlik kabi muammolar tizimli ravishda ajratib ko‘rsatildi. Sxema tuzish jarayonida ular har bir muammoning kelib chiqish sabablari,

			jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri hamda bartaraf etish yo‘llari yuzasidan mustaqil xulosalar chiqardilar. Ushbu metod talabalarning tahliliy fikrlashi, muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.
3	Rolli o‘yin	“Shaxs va jamiyatni bog‘lab turgan narsa nima?” savoli asosida fikr almashish tashkil etildi.	Talabalar shaxs va jamiyat o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi omillar sifatida ma’naviyat, tarbiya, mas’uliyat, adolat, muloqot, hamkorlik, qadriyatlar va o‘zaro hurmat tushunchalarini e’tirof etdilar. Ular inson jamiyat ichida shakllanishi, jamiyat esa ongli va faol shaxslar orqali taraqqiy etishini misollar asosida izohlab berdilar.
4	BBB metodi	Bilaman–Bilmoqchiman–Bildim jadvali	Talabalar dastlab Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi, uning asarlaridagi asosiy g‘oyalar hamda qahramonlar haqidagi mavjud bilimlarini bayon etdilar. “Bilmoqchiman” bo‘limida esa adib asarlarida shaxs va jamiyat muammolarining ifodalanishi, obrazlar ruhiyati, tarixiy voqealarning badiiy talqini kabi masalalarga qiziqish bildirdilar. Mashg‘ulot yakunida “Bildim” bo‘limi orqali ular yangi o‘zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirib, Abdulla Qodiriy ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, asarlarining

			bugungi kun bilan hamohang jihatlari yuzasidan aniq xulosalar chiqardilar.
5	Debat	“Jamiyatni shaxs o‘zgartiradimi?” mavzusida munozara	Talabalar ikki guruhga bo‘linib, shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda jamiyatning inson kamolotiga ta’siri yuzasidan asosli fikr-mulohazalar bildirdilar. Bir guruh tarixda buyuk shaxslar, ma’rifatparvarlar va islohotchilar faoliyati orqali jamiyat taraqqiy etganini ta’kidlasa, ikkinchi guruh esa shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhit, tarbiya va jamiyat omillari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini asoslab berdi. Munozara jarayonida talabalar erkin fikrlash, dalillar keltirish, qarama-qarshi nuqtai nazarni hurmat qilish hamda mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Talabalarga qaysi tushuncha shaxs va jamiyatni bog‘lab turuvchi hodisa emasligi bo‘yicha metod o‘tkazildi. Ulardan 10 ta so‘z ijobiy harakterga ega va 1tasi salbiylik bo‘yog‘ini olgan bo‘lib, talabalar uni muhokama qildi. Masalan, ma'naviyat, mas'uliyat, adolat, erkinlik, qadriyatlar, madaniyat, nizo, muloqot, hamkorliklik, tafakkur kabi tushunchalar ichidan shaxs va jamiyat muammosiga sabab bo‘lgan so‘zni ajratib, misollar orqali fikrini isbotladi.

Talabalarga “Mehrobdan chayon” asaridan parchalar berib, ulardan shaxs va jamiyat muammosini qaysi jarayon buzyapti? bu qaysi so‘zda ochilyapti? kabi savollar berildi. Masalan,

“...Bu xonlikda mansab uchun bir-birining oyog‘idan chalish, tuhmat qilish, pora berib martaba orttirish odat tusiga kirgan edi. Elning dardi bilan emas, o‘zining

foydasi bilan yashagan amaldorlar ko‘paygan, mazlum xalq esa bularning zulmi ostida ezilib yotar edi...”[7; 37].

“...Ilmga yuz burmagan, zamon o‘zgarishini anglamagan kishilar hanuz eski xurofot domida yashar edilar. Ular uchun haqiqatdan ko‘ra taqlid afzal, tafakkurdan ko‘ra johillik yaqinroq edi...”[7; 64]

“...Bu muhitda xotin-qizning ko‘ngli, orzu-havasi bilan hisoblashuvchi kishi kam edi. Ularning taqdiri o‘z qo‘lida emas, boshqalarning hukmi ila belgilanar, ko‘ngil istagi esa sukut ichra qolib ketar edi...”[7; 112]

“...Adolat yo‘q yerda osoyishtalik bo‘lmas. Zulm ustiga qurilgan saltanatning umri uzoq emas. Vijdonini sotgan odam ko‘paygan yurtda elning ertasi qorong‘udir...”[7; 156].

Talabalar asardan olingan ushbu parchalarni tahlil qilib, ularda aks etgan shaxs va jamiyat muammolarining mazmun-mohiyatini chuqur anglashga erishdilar. Xususan, mansabparastlik, poraxo‘rlik, jaholat, ayollar huquqsizligi hamda adolatsizlik kabi illatlarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri yuzasidan asosli fikr-mulohazalar bildirdilar. Shuningdek, ular muallifning badiiy mahorati, obrazlar orqali ijtimoiy muammolarni ochib berish uslubi va tanqidiy qarashlarini tahlil qildilar. Mashg‘ulot jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, matn ustida ishlash, dalillash hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Natijada mavzuga qiziqish ortib, Abdulla Qodiriy ijodining bugungi kun uchun ham dolzarbligi anglab yetildi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodida shaxs va jamiyat muammolarining badiiy talqini o‘zbek adabiyotida muhim g‘oyaviy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Adib asarlarida inson erki, milliy uyg‘onish, adolat, ma’rifat, mansabparastlik, jaholat va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar chuqur

realizm asosida yoritilgan. Shu jihatdan Abdulla Qodiriy asarlari bugungi kunda ham ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ilmiy-amaliyot jarayonida mavzuni o‘qitishda qo‘llangan interfaol metodlar talabalar bilimini mustahkamlashda samarali natija berdi. Xususan, tushunchalarni tahlil qilish, matn ustida ishlash, muammoli vaziyatlarni aniqlash hamda badiiy parchalar asosida fikr yuritish metodlari orqali talabalarning mustaqil tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va adabiy tahlil ko‘nikmalari rivojlandi. Ular shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, jamiyat tanazzuliga sabab bo‘luvchi omillarni hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini anglab yetdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 1994. – 160 b.

2. Qo‘shjonov M. Adib mahorati. – Toshkent: Fan, 1974. – 144 b.

3. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Yozuvchi, 1981. – 192 b.

4. Норматов У. Қодирийнинг сўнгги илтижоси. - Тошкент: Movarounnahr, 2014. - 64 б.

5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 400 b.

6. . Abdulla Qodiriyning badiiy falsafasi // Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. – 2024. – №1(77). – B. 36–42.

7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent, 2018. – 192 b.